

Mehnat shartnomasiga kiritilgan korrupsiyaga qarshi shartlarning TAVSIYAVIY NAMUNASI

Mehnat shartnomasi taraflari quyidigilar haqida kelishdilar:

1. Xodim o'z xizmat vazifalarini bajarayotganda korrupsiyaviy hatti-harakatlarda qatnashmaslik, shu jumladan g'ayriqonuniy imtiyozlarni olish yoki boshqacha tarzda g'ayriqonuniy maqsadlarda o'zining yoki boshqa shaxslarning xarakatlari yoki qarorlariga ta'sir qilish uchun pul mablag'lari yoki boshqa qimmatliklar ko'rinishida:

- pora taklif qilmaslik;
- va'da bermaslik;
- pul to'lamaslik, tovlamachilik qilmaslik;
- bevosita yoki bilvosita pora olishga rozilik bermaslik;
- pora olmaslik;
- biron-bir shaxs foydasiga yoki biron-bir shaxs xizmatlaridan foydalanmaslik;
- mol-mulk yoki mulkiy huquqlarni olmaslik;
- o'z vakolatlarini suiste'mol qilmaslik majburiyatini oladi.

2. Xodim atrofdagi shaxslar tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlikni **sodir etish yoki unda qatnashishga tayyorgarlik ko'rish** sifatida baholanishi mumkin bo'lgan hulq-atvordan **o'zini tiyishi shart.**

3. Xodim O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari va *TASHKILOTNING* ichki xujjatlariga muvofiq **manfaatlar to'qnashuvi** kelib chiqishini oldini olish choralarini ko'rishi va manfaatlar to'qnashuvi yoki uning kelib chiqish ehtimoli haqida o'ziga ma'lum bo'lishi bilan **darhol** ish beruvchini yoki uning o'rnini bosadigan shaxslarni **xabardor Qilishi shart.**

Xodimlar orasida shaxsiy yoki boshqa shaxslarning manfaatlarini ko'zlab, xizmat majburiyatlaridan chetga chiqqan holda boshqa xodimlarning professional ish faoliyatiga aralashish, ma'lumot so'rash hamda qaror qabul qilishga ta'sir ko'rsatish holatlari yuzaga kelganda _____ ichki hujjatlariga

(tashkilot nomi)

muvofiq darhol quyidagi aloqa kanallari orqali xabar qilishi lozim:

Ishonch telefoni: +998 70 619-23-33

Telegram boti: @agmk_bot

Elektron manzil: stop.corruption@agmk.uz

4. Agar xodim *TASHKILOTNING* boshqa xodimlari tomonidan sodir etilgan va sodir etilishi rejalashtirilayotgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi **faktlarni aniqlasa**, u ushbu ma'lumotni **aloqa kanallari orqali TASHKILOTNING** Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatida ko'rsatilgan shaxsiga **taqdim etishi shart.**

5. Xodim O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va O'zbekiston Respublikasi _____ ichki hujjatlarida nazarda

(tashkilot nomi)

tutilgan korrupsiyaga qarshi **talablarni buzgan taqdirda**, qonun hujjatlariga muvofiq **javobgarlikka tortiladi.**

Tomonlarning manzillari va imzolari:

Xodim:

Ish beruvchi:
